

MAXSUS PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Rimbayeva Ozoda Bazarbayevna

NukusDPI Maxsus pedagogika-logopediya 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Nogironligi bo‘lgan alohida yordamga muhtoj bolalar ta’lim tarbiyasi ma’suliyatli va mashaqqatli soha hisoblanadi. Bu sohaning kundan kunga rivojlanib borayotganligi esa bunday bolalar sonining ko‘payayotganini ko‘rsatadi. Xo‘sish, O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish, ularga ta’lim-tarbiya berish masalalariga qachondan e’tibor qaratila boshlandi? Bu sohaning rivojlanishiga nima turtki bo‘ldi? Nima sababdan bu toifadagi bolalar soni dunyo miqyosida kundan kunga oshib bormoqda? Nogironligi bor bo‘lgan bolalar nuqsonlarini korreksiyalash va ularning oldini olish uchun nimalar qilishimiz lozim? Mana shunday bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan savollarga quyidagi javob izlaymiz.

Kalit so‘zlar: defektologiya, maxsus pedagogika, korreksiya, inklyuziv ta’lim.

Bugungi kunda dunyo miqyosida jismoniy vs ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bo‘lgan shaxslar Umumjahon sog‘liqni ekologik saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra 15% ni tashkil etmoqda. O‘zbekistonda esa 760 mingdan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar istiqomat qilishmoqda. Ularning 120 mingga yaqin qismini 18 yoshga to‘limganlar tashkil etadi. Albatta bunday shaxslarga alohida ta’lim va tarbiya berish ishlari barcha sog‘lom bolalar bilan teng olib borilmoqda. Yurtimizda ilk bor 1929-yil O‘zbeiston Respublikasi markaziy ijroiya qo‘mitasi raisi Yo‘ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun Toshkentda alohida maktab ochilgan. 1975-yilda “Aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ishga joylashtirish haqidagi” qarordan keyin bu sohaga munosabat ancha o‘zgardi. Maxsus pedagogika sohasi

rivojlanishi, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim tarbiyasi bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan yuqori bilim va ko‘nikmaga ega bo‘jgan mutaxassislarni tayyorlash ishlari esa Markaziy Osiyoda ilk bor 1965-1967-yillarda boshlangan edi. O‘scha davrda Nizomiy nomidagi pedagogika instituti hozirgi kunda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti nomi bilan o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ilk tashkil etilgan yillarda bu soha bo‘yicha yetarlicha qo‘llanmalar bo‘lmasdan. Shunga qaramasdan o‘tgan davrda O‘zbekiston Respublikasining defektologiya sohasidagi birinchi olimasi- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent S.Sh.Aytmetovadir. Sh.Aytmetova defektologiya fakultetining mustaqil fakultet sifatida tashkil etilishida va dastlabki defektolog mutaxassislarni yetishtirib berishda katta xizmat qildi. [1.6]

Shundan keyin bu soha mutaxassislari ko‘paya boshladi. V.S.Rahmonova, B.Shoumarov, K.Mamedov, P.Po‘latova kabi yosh kadrlar o‘z ish faoliyatlar davomida maxsus pedagogika va maxsus psixologiya sohalarida katta yutuqlarni qo‘lga krita boshladilar. Misol qilib aytadigan bo‘lsak birgina G‘.B.Shoumarovning birgina o‘zi “Ming bir savolga ming bir javob”, “Oila va muhabbat”, “Oila etikasi va psixologiyasi” kabi kitob va ilmiy-ommabop o‘quv qo‘llanmalar yaratdi. K.Mamedov bilan birgalikda yaratgan “Rivojlanishi sustlashgan bolalar diagnostikasi” o‘quv qo‘llanmasi ham bugungacha asosiy qo‘llanmalar qatorida foydalanib kelinmoqda.

Keyingi yosh mutaxassislardan biri bo‘lgan M.Ayupovaning “Logopediya” kitobi esa hozirgi kunda O‘zbekistondagi Maxsus pedagogika mutaxassisligi uchun asosiy darslik sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

Bu sohaning rivojlanishi, bugungi kunga kelib yanada kengayib borayotganligiga sabab esa dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar, ob-havodagi keskin isishlar, turli infeksion va virusli kasalliklarning keng tarqalishi, nosog‘lom hayot kechirish va boshqa shu kabi salbiy illatlar tufayli nogiron bolalarning ko‘plab tug‘ilishidir. Aqliy va jismoniy tomondan nuqsonga ega bolalar soning ortishi ularning talim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishga bo‘lgan talabning ham

oshishiga sabab bo'ldi. Ularni ta'llimga qamrab olishdan ko'zlangan asosiy maqsad nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdan ajralib qolmasligini ta'minlash, ularga bo'lgan ijobiy ko'z qarashlarni shakllantirish, ularning o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishiga imkon yaratish bo'lib hisoblanadi. ularning qay darajada korreksiyalanishi, jamiyatga qo'shilib keta olishlari eng avvalo ular yashab turgan joyga, ularning qanday xizmatlardan foydalanishlari, ularning atrofidagi muhitga bog'liq.

Nogironligi bo'lgan shaslar uchun yana bir yaratilayotgan keng imkoniyatlardan biri bu inklyuziv ta'limning joriy etilishidir. Inklyuziv ta'lim- bu davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'llimga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltrilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir [2.7]. Ushbu ta'lim tizimining joriy etilishi avvallari jamiyatimizdan yashirib kelingan rivojlanishda nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarning o'z tengqurlariga qo'shilishi uchun imkon yaratadi.

Hozirgi davrda defektologiya sohasining rivojlanishi, bu borada olib borilayotgan keng qamrovli ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar nuqsonlarini korreksiyalashning bir qator namunalari yaratilmoxda. Eng avvalo rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan to'g'ri ish tashkil etishda unga to'g'ri tashxis qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalar nuqsonlarini korreksiyalash ishlari o'z vaqtida muntazam ravishda olib borilishi yaxshi natija erishish uchun eng katta hissa qo'shuvchi jarayondir. Yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan har qanday kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olgan yaxshiroqdir. Ya'ni tug'ilajak bolaning sog'ligi uchun ota-onasiga birdek ma'suldir. Farzandni to'g'ri rejorashtirish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, bolaga e'tiborli bo'lish, turli kasalliklarning oldini olish, erta turmush qurmaslik va shu kabi boshqa qoidalarga amal qilish orqali ko'plab nuqsonlarning oldini olishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki defektologiya sohasining rivojlanib borishiga sabab nogiron bolalarning tug'ilish sonining ortishidir. Biz ularga yordam

berish uchun imkoniyatlar yaratishimiz, ularning nuqsonlarini korreksiyalashda yangi metod va usullarni o‘ylab topishimiz lozim. Ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni kasb-hunarga o‘rgatishimiz mumkin. Ular o‘z nuqsonlari sabab jamiyatdan ajralib qolmasliklarini ta’minlash ularga ham xuddi sog‘lom bolalar kabi munosabatda bo‘lib qulayliklar yaratish bizning eng katta vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.M.Po‘latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova,
Z.N.Mamarajabova, A.D.Sultonova “MAXSUS PEDAGOGIKA” Toshkent-
2014 [1.6]
2. M.U.Xamidova “MAXSUS PEDAGOGIKA” Toshkent-2018 [2.7]
3. M.Ayupova “LOGOPEDIYA” Toshkent-2019
4. F.Qodirova “IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O‘QITISH,
TARBIYALASH VA IJTIMOIY HAOTGA TAYYORLASH” Toshkent-2019